

Abu Bakr Xatib Bag‘dodiyning “Tarixi Bag‘dod” asarida qo‘llanilgan uslub

“Tarixi Bag‘dod” asari Abu Bakr Xatib Bag‘dodiyning eng muhim va yirik asarlaridan biridir. Kitob 7831 ta muhaddislar va boshqa ilm ahllari jamiyat va davlat arboblarning tarjimai hollarini o‘z ichiga olgan va ularning tarixini yoritib bergan. Xatib Bag‘dodiy o‘z asarida Bag‘dod tarixiga oid yozilgan va yo‘qolib ketgan asarlar haqida ham ma’lumot berib ketgan. Xususan, yagona yoki deyarli yolg‘iz asarlar haqida xabar berib o‘tgan. “Tarixi Bag‘dod”ning madaniy hayotdagi ahamiyati shunda namoyon bo‘ladiki, u olimlarning dars o‘tish usullari va yo‘llarini, ularning qiyoslarini, talabalar bilan olimlarning aloqalarini, X-XI asrlarda mashhur bo‘lgan madrasalar ta’rifini, shuningdek, masjidlarda hadis o‘rgatish va dars o‘tish uchun olimlar majlislari va anjumanlarini yoritib bergan. Bundan tashqari “Tarixi Bag‘dod” olimlarning faoliyati va ba’zi islom shaharlaridagi fikriy harakat bilan boshqasining aloqasi ko‘lamini o‘zida aks ettirgan. Shuningdek, olimlarning ilm talabida safar qilishini aniq va ular ko‘p kirgan shaharlarning nisbatini aytish orqali keltirib o‘tgan. Shubha yo‘qki, “Tarixi Bag‘dod” asarining hadis ilmi borasidagi ulkan ahamiyati yashirindir. Xatib Bag‘dodiy keltirgan 7831 ta tarjimai holdan taxminan 5000 tasi muhaddislarga tegishli¹. Olim hadis va uni rivoyat qiluvchi, tarix va odobga aloqador rivoyatlardan iqtibos olishda diqqat bilan uning sanadidan foydalangan.

E’tibor beradigan bo‘lsak, “Tarixi Bag‘dod”da iqtibos keltirilgan asarlar ko‘p emas, balki ularning ba’zilari asarlarning nomiga tegishli kitoblarni ko‘rsatmagan.

Uning iqtiboslarida esa, yo‘qolib ketgan ko‘plab asarlarni ta’rif etishda ulkan ahamiyatga ega isnodlar keltirilgan. Jumladan, tarix tarixini va hadis tarixini o‘rganishda juda muhim bo‘lgan hadislar va ma’lumotlarni keltirgan. “Tarixi Bag‘dod” asarinining ko‘plab asarlar nomini zikr etishdagi ahamiyatini eslab o‘tish kerak. Xatib o‘z asarida jami 446 ta asarlar nomini va qaysi sohaga tegishli ekanligini keltirib o‘tgan². Ularning mavzulari tarqoq va turli ilm sohalariga

¹ Akrom Ziyo. Mavorid al-Xatib al-Bag‘dodiy. – B. 89-90.

² Akrom Ziyo. Mavorid al-Xatib al-Bag‘dodiy. – B. 90.

tegishlidir. Ular: Qur'on va qiroat ilmiga oid (57 kitob), Tafsirga (24 kitob), Hadisga (73 kitob), Hadis ilmlari va uning sharhi (21 kitob), Fiqh (21 kitob), Usul ul-fiqh (3 kitob), Aqida va fiqhlar (12 kitob), Tasavvufga oid (6 kitob), Mantiq va kalom ilmi (3 kitob), Siyratu Nabaviy (9 kitob), Fazilatlar va darajalar (4 kitob), Tarjimai xollar (8 kitob), Rijol ilmi (56 kitob), Tarix (10 kitob), Xabarlar (12 kitob), Nasab (11 kitob), Muftado (3 kitob), Odob va she'rlar devoni (37 kitob), Lug'at (30 kitob), Nahv va sarf (31 kitob), Geografiya (2 kitob) va boshqa kitoblar (13 ta)³.

Olim ba'zida tarjimai hol egasining asarlarini zikr etgani uchun bu unga qo'shimcha ahamiyat kasb etadi. Kitobida tarjimai holi keltirilayotgan shaxsga e'tiborsiz o'tib ketishni istamagan. Shuningdek, Xatib matematik, astranom va faylasuflarning tarjimai hollariga ahamiyat bermagan va siyosiy arboblarning hamda davlat kishilari, harbiylar, adabiyotchi, shoir va qo'shiqchilar biografiyasini ham keltirmagan. Yana Xatib Bag'dodiy o'z asarida na siyosiy, harbiy tarix haqida va na boshqaruv ishi iqtisodiy jihatdan mufassal ma'lumotlar bergan. "Tarixi Bag'dod" yetarlicha bo'lgan va madaniy hayotning barcha sohalarini qamrab olgan to'liq tarix emas⁴. Asarning ahamiyati yana shunda namoyon bo'ladiki, unda o'zi o'rgangan vaqt oraliqida yozilgan asarlardan iqtibos keltiradi va Bag'dod tarixiga oid asar yozgan mualliflarni aytib o'tadi.

Muhaddisning "Tarixi Bag'dod" asaridan foydalangan va uning asarlaridan iqtibos keltirgan mualliflarning eng taniqlilari quyidagilar:

1. Ali ibn Hibbatulloh ibn Makula (vafoti 475/1082 y.) "Ikmal" asarida
2. Abu Said Abdulkarim ibn Muhammad Sam'oni (vaf. 562/1167 y.) "al-Ansab" (Nasablar) asarida
3. Ibn Abu Ya'lo (vaf. 526/1132 y.) "Tabaqot ul-hanobiliyya" (Hanbaliylik tabaqotlari) asarida
4. Abul Faraj Abdurahmon ibn Ali ibn Javziy (vaf. 597/1172 y.) "al-Muntazam fi tarixi al-muluk va-l-umam" (Podshohlar va imomlar tarixida tartibli kitob) asari va "al-Misbahul muzi fi axbaril mustadi" (Xabar berishda yorqin chiroq) asarida

³ O'sha asar. – B. 91-92.

⁴ Akrom Ziyov. Mavrid al-Xatib al-Bag'dodiy. – B. 94.

5. Yoqut Hamaviy (vaf. 626/1229 y.) “Mu’jam al- buldon” (shaharlar to‘plami) “Irshodul aribu ila ma’rifatil adib” (Adibni bilish uchun mahoratli ko‘rsatma) asarida
6. Abul Abbos Shamsiddin Ahmad ibn Muhammad ibn Xallikon (vaf. 681/1282 y.) “Vafayotul a’yon” (“Taniqli shaxslarning vafoti”) asarida
7. Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad Zahabiy (vaf. 737/1337 y.) “Tazkiratul xuffoz” “Mezon al- i’tidol fi naqd ar-rijol” (“Hadis roviylariga baho berishning adolatli mezoni”) “Siyaru a’lamun- nubalo” (“Oliyjanob kishilar hayoti”) “Tarixul Islam” va boshqa ko‘plab asarlarida

Bu keltirilgan ma’lumotlar “Tarixi Bag‘dod” asarining ahamiyatini hamda uning muallifi Xatib Bag‘dodiyning mavqei va ularning ishonchlarini ko‘rsatadi.

Xatib Bag‘dodiy o‘z asarida Bag‘dodda yashagan yoki o‘z asrigacha u yerga kelgan boshqa olimlarning asarlarini tarjima qilishga harakat qilgan. U o‘z davridan oldingi asarlarga, muhaddis va boshqalar, xalifalar yoki yozuvchi hamda shoirlarning tarjimai holi keltirilgan kitoblarga, shu bilan bir qatorda, bir yilda yozilgan kitoblarga e’tibor qaratadi.

Shuningdek, tarjimonlarning xabarlarini izohlashga e’tibor beradi. Hadis kitoblardan, shayxlar to‘plamlaridan, muntaxablardan va zaif hadislar ham aralashib ketgan hadislardan qisman foydalangan⁵. Xatib ba’zilarining izidan borgan va ba’zilarini tanqid qilgan lekin, u buni doim ham qilavermagan.

Xatib Bag‘dodiy hadis va uning ilmlarida mohir bo‘lgani uchun uning eng ko‘p tanqidlari hadis ilmi mavzusiga qaratilgan. Bunga qo‘shimcha yana Xatib, o‘zidan oldin yozilgan asarlardan ham foydalangan. Xattoki, uning iqtiboslari kitobining ko‘p qismini egallagan deyish mumkin. Shu narsa aniqki, Xatib Bag‘dodiy o‘z oldiga biografiya, tarix, adabiyot borasidagi saralangan asarlarni topa olgan. Bag‘dod tarixini qamrab olgan rivoyat asarlarini o‘zi saralab chiqqan. Uning biografiya sohiblari haqidagi ma’lumotlari boshqalaridan kengroq yozilgan. U vaqti kelganda ularni izohlab bergan.

⁵ Akrom Ziyo. Mavorid al-Xatib al-Bag‘dodiy. – B. 97.

Xatib Bag‘dodiy kitobida tarjimai hollarni keltirishda, alifbo tarzida ya’ni, harflarning boshiga ko‘ra tartiblagan. Lekin, to‘plamning barchasi bu kabi ketmagan. Ammo ba’zida tabaqot usuliga, ya’ni bir harf va bir ismlilarni keltirishga rioya qilgandek tuyuladi. Nega bunday qilganini aytib o‘tmagan. Shunday bo‘lsa ham, u doim keyingilarga oldingilarning tarjimai hollarini taqdim etgan, deya olamiz.

Asarda hadislar aytgan 4250 shaxs (sahobalardan boshlab)ning tarjimai holi keltirilgan. Xatib Bag‘dodiy asarning kirish qismini quyidagicha boshlaydi: “Bu kitob Bag‘dod tarixi va uning binolari xabari, Bag‘dodga kelgan ulug‘ kishilar zikri, unga kirganlar zikri va olimlarning ismini keltirish kitobidir. Bundan tashqari menga ilmi yetib kelganlarni va menga ilmi meros bo‘lib o‘tganlarni ham keltirib o‘tdim. Karamli Alloh yordami bilan hech bir ishda ko‘rib chiqilmagan narsalarga e’tibor qaratdim⁶. Yana olim asarning kirish qismida quyidagilarni keltirib o‘tadi: “Bizga Abdulaziz ibn Abdulhasan Qurmisiiy xabar berdi : Umar ibn Ahmad ibn Usmondan eshitdim, u aytdiki, Abu Bakr Naysoburiydan eshitishimcha, u Yunus ibn Abdul A’lodan quyidagilarni eshitgan: u aytadi: Shofeiyy menga shunday dedi: “Ey, Yunus! Bag‘dodga borganmisan?”. Men: “Yo‘q”, - dedim. U “unda sen dunyoni ko‘rmabsan” -dedi⁷. Bu rivoyat orqali olim Bag‘dod shahrini ulug‘ligini ko‘rsatib o‘tadi.

Bu xabardan so‘ng, Xatib o‘z asari haqida gapirib o‘tadi va quyidagicha boshlaydi: “Biz kitobimizda boshlaydigan ilk narsa bu – unga qarashli hududlar va olimlari ularning so‘zlari ulardan ijoza olish hamda ulardan saqlanib qolgan narsalar zikri, ulardan bir emas, ko‘pchilikning Bag‘dod o‘z yerlarini sotmaydigan shahar deyishlari zikri. Bag‘dodda ijarada yashovchi ba’zilar fikri”⁸. Asarni olim Bag‘dod haqidagi maqtoqli rivoyatlarni keltirish bilan boshlaydi. Shundan so‘ng, ketma-ket kitobining boblarini va shu boblarga tegishli xabarlarini keltirib o‘tadi.

Xatib nafaqat tarixchi, muhaddis balki, faqih ekanligini ham kuzatish mumkin, chunki ba’zi o‘rinlarda fiqhiy qoidalarni ham keltirib o‘tadi.

⁶ Xatib Bag‘dodiy. Tarix Bag‘dod. – J.1. – B. 33.

⁷ Abul Faraj Abdurahmon ibn Ali ibn al-Javziy. Al-Muntazam fi tarix al-muluk va-l-umam. 17 jildli. – Bayrut: Dor al-kutubil ilmiyya, 1995. J. 8. – B. 84.

⁸ Xatib Bag‘dodiy. Tarix Bag‘dod. J.1. – B. 37.

Shundan so'ng Xatib asarning asosiy qismiga o'tadi va birinchi bo'lib, Payg'ambarimiz jiyanlari to'rtinchi xalifa Ali ibn Abu Tolib (vaf. 40/661)ni va farzandlari Hasan va Husaynlarni ketma-ket keltirib o'tadi. Undan so'ng Payg'ambarimiz sahobalari Sa'd ibn Abu Vaqqos, Abdulloh ibn Ma'sud, Ammor ibn Yosir, Abu Ayyub Ansoriy kabilarni hayotlariga to'xtab o'tgandan so'ng esa Muhammad ismiga hurmatidan Muhammad va otasining ismi alif bilan boshlanadigan muhaddislarni berib borgan. Muhammad ibn Is'hoq, Muhammad ibn Ahmad, Muhammad ibn Ibrohim, Muhammad ibn Ismoil tarzida davom etadi. 7800ga yetgandan so'ng asarining oxirida 31ta bag'dodlik olim ayollarni keltirish bilan asarini yakunlaydi. Xatib keltirib o'tgan muhaddis va faqihlar ko'pchiligi yo bag'dodlik yoki Bag'dodda ta'lim olgan yoki u yerda hadis rivoyat qilgan kishilardir. Olimning asariga shuningdek, Muhibiddin ibn Najjor va Abdulkarim Sam'oniylar Xatib keltirib o'tmagan ayrim muhaddislarni kiritib "Zayli Tarixi Bag'dod", ya'ni "Tarixi Bag'dodga ilova" yozadilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Abu Bakr Xatib Bag'dodiyning boy va qimmatli ilmiy-ma'naviy merosi, xususan, uning "Tarixi Bag'dod" asari yurtimiz ilm-fan va madaniyati tarixini o'rganishda, asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlarimizni tiklashda muhim ahamiyatga molik manba sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Akrom Ziyo al-Umariy. Mavorid al-Xatib al-Bag'dodiy fi tarixi Bag'dod. – ar-Riyod: Doru Tayba, 1985.
- 2.Abu Bakr Ahmad ibn Ali al-Xatib al-Bag'dodiy. Tarix Bag'dod av Madinat as-salom. 14 jildli / Mustafu Abdulqodir Ato' tahriri ostida. 3-nashri. – Bayrut: Dor al-kutubil ilmiyya, 2011.
- 3.Abul Faraj Abdurahmon ibn Ali ibn al-Javziy. Al-Muntazam fi tarix al-muluk va-l-umam. 17 jildli. – Bayrut: Dor al-kutubil ilmiyya, 1995.

Mazkur maqola: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti " Tarixiy manbashunoslik, Tarixnavislik, tarix tadqiqotlari metodlari va metodologiyasining dolzarb masalalari" mavzusidagi Respublika X ilmiy konferensiyasining to'plamida nashr ettirilgan.

Toshkent. 2018.

Mamadaminov Muhriddin Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti magistranti